

KORRUPSIYAGA QARSHINKURASHISH

Yunusov Eldorbek Solijonovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimizda mustaqillikdan buyon korrupsiyaga qarshi kurashish bo`yicha bir qator qarorlar qabul qilinayotganligi, korrupsiyaga o’zi nima ekanligi, – shaxsning o’z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o’zga shaxslarning manfaatlarini ko’zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi kabi masalalar haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: poraxo`rlik, mansabdor shaxslar, qonun ustuvorligi, demokratiya, rivojlanish, maqsad.

Poraxo`rlik (korrupsiya) – bu jamiyatning barcha sohalariga salbiy ta'sir ko‘rsatadigan global muammo. U iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi, demokratiyaga putur yetkazadi, qonun ustuvorligini buzadi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Shu bois, poraxo`rlikka qarshi kurashish dunyo miqqosida ustuvor vazifa hisoblanadi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach o’z oldiga mamlakatni rivojlantirish uchun bir qator vazifalar qo’ydi, turli sohalarni rivojlantirish va tartibga solish uchun qator islohotlar amalga oshirildi shuningdek, bir qancha qonun va qonun osti hujjatlarni ishlab chiqdi. Ammo korrupsiyaga qarshi kurashish uchun

zarur choralar amalga oshirilmadi. Shavkat Mirziyoyev Respublikaga Prezident etib saylangandan keyin ushbu sohada bir qator qonun va qonun osti hujjatlar qabul qildi. Tarixiy voqealardan bir shuki, 2017-yil “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida” 419-sonli qonun qabul qilindi. Ushbu

qonun qabul qilinganidan so’ng korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari belgilandi va mansabdorlarga bir qancha vazifa va majburiyatlar yuklandi.



Korrupsiya – shaxsning o’z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o’zga shaxslarning manfaatlarini ko’zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir. Mansabdorlik jinoyati korruksianing ko’rinishlaridan biri hisoblanib, uning xususiyati shundan iboratki, ushbu jinoyatlarni qonunning ijrosini ta’minlaydigan va uni qo’riqlaydigan shaxslar tomonidan sodir etiladi. Ushbu jinoyatchilikni ko‘pgina g‘arb davlatlarida keng tarqaganligi, ushbu davlatlarda davlat apparatining korruksiyaga botganligi, bu davlatlar qonun chiqaruvchi organi tomonidan korruption illatlarning ko’rinishlari bo‘lgan poraxo‘rlik, xizmat vakolatini suiste’mol qilish va boshqa mansabdorlik jinoyatlari uchun qattiq jazo turlarini kuchaytirish bilan bir vaqtida, mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan xavfsizlik darajasi kamroq bo‘lgan va keng tarqagan jinoyat turlariga kamroq e’tibor berilgan.

Shu sababli korruksiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni va jinoyatlarni o‘rganish uchun bir qator mansabdorlik jinoyatlarini hamda mansabdor shaxslarning xizmat sohalarini tahlil qilish lozim bo‘ladi.

Poraxo‘rlik jinoyatlarining asosiy turlari:

- Mansabdor shaxsga o’z xizmat mavqeini suiste’mol qilish evaziga moddiy yoki nomoddiy manfaatlar taklif etish, berish yoki olish.
- Davlat yoki xususiy mulkni mansabdor shaxs tomonidan noqonuniy ravishda o‘zlashtirib olish.
- Mansabdor shaxsning o’z vakolatlarini shaxsiy manfaatlar yo‘lida ishlatishi.
- Jinoyat yo‘li bilan topilgan daromadlarni qonuniy manbalarga o‘tkazish.
- Mansabdor shaxsning shaxsiy manfaatdorligi uning xizmat vazifalarini bajarishiga ta’sir qilishi.

O‘zbekistonda poraxo‘rlikka qarshi kurashish bo‘yicha milliy strategiyani amalgamoshirish, xalqaro tajribani o‘rganish va ilg‘or usullarni joriy etish, jamiyatning barcha a’zolarining faol ishtiroki orqali korrupsiyani bartaraf etishga erishish mumkin.